

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Фофуров Низомжон Октябрович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Сабиров Алишер Сабирович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам (США)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Муйдинова Моҳира Муқимжоновна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ходжаев Собир Джумаевич
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Акрамов Хусан Фуркатович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харасович
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
2. Sabirova Umida SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
3. Алексеева Виктория КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
4. Kayumov Kaxramon KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHATLARI.....	30
5. Alikariyeva A'loxon TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
6. Mannanova Nilufar DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOIYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
7. Mo'minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI.....	51
8. Jiyanmuratova Gulnoz YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
9. Сеитов Мансур МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
10. Узакова Зарина СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
11. Ziyayeva Xolida AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
12. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIIY OMILLARI.....	88
13. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93

14. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
15. Akramov Xasan YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
16. Kalanova Sabohat JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
17. Axrorov Zohidjon O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
18. Xujanov Zafar KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
19. Turanazarov Umid KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
20. Kaxarova Nilufar SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
21. Хакимова Анора ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
22. A‘zamxonov Saidabzalxon TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
23. Ro‘zimatov Elbek VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
24. Masharipov Baxtiyar SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
25. Muzaffarov San‘atbek VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
26. Yo‘ldashev Shoxrux YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Kalanova Sabohat,


O'zbekiston Milliy universiteti

Sotsiologiya kafedrasida dotsenti

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

e-mail: sabo_77@mail.ru

JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOY HODISA SIFATIDA

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800148>

ANNOTATSIYA

O'zgaruvchan muhitda jamiyat ijtimoiy munosabatlarning tiklanishi va o'zgarishi, uzluksizlik va bo'linish, an'anaviylik va innovatsiya tushunchalariga asoslangan tarixiy jarayon sifatida qarashni talab qiladi. Avlodning qadami jamiyatning o'tmishdagi holati va uning kelajakka harakati o'rtasidagi muvozanatni aniqlashga yordam beradi. Ushbu maqolada avlodlararo munosabatlar muammosining metodologik va nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Ushbu muammoning dastlabki uslubiy asosi Platonning nasliy inson haqidagi g'oyasi, shuningdek, rus faylasuflarining inson va jamiyat o'rtasidagi asosiy bog'lovchi bo'g'in sifatidagi nasliy yaxlitlikka qarashlari keltirilgan. Faylasuflar M.Xaydegger va E.Gusserlning intersubektiv tajribasi g'oyasi tahlil qilingan bo'lib, eski va yangi avlodlar, kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar yoki generativ munosabatlar sifatida talqin etilgan.

Kalit so'zlar: generativ munosabat, intersubektiv tajriba, differentsiatsiya, avlodlararo munosabatlar, avlodlararo munosabatlar psixologiyasi, nasliy butunlik.

Каланова Сабохат,

Национальный университет Узбекистана,

Доцент кафедры «Социология»

доктор философии по социологии, PhD

e-mail: sabo_77@mail.ru

ПРОЦЕССЫ СМЕНЫ ПОКОЛЕНИЙ В ОБЩЕСТВЕ КАК СОЦИАЛЬНЫЙ ФЕНОМЕН

АННОТАЦИЯ

В меняющейся среде общество требует рассматривать как исторический процесс, основанный на концепциях восстановления и изменения социальных отношений, преемственности и разделения, традиций и инноваций. Шаг поколения помогает определить баланс между состоянием общества в прошлом и его движением в будущее. В этой статье рассматриваются методологические и теоретические аспекты проблемы межпоколенных отношений. В качестве исходного методологического основания этой проблемы обозначается идея Платона о родовом человеке, а также взгляды российских философов о родовой

целостности как главном, связующем звене между человеком и обществом. Анализируется идея интересубъективного опыта философов М.Хайдеггера и Е.Гуссерля, которая трактуется как отношение между старым и новым поколениями, между взрослым и ребенком, или как генеративное отношение.

Ключевые слова: генеративная установка, интересубъектный опыт, дифференциация, отношения между поколениями, психология межпоколенческих отношений, расовая целостность.

Kalanova Sabohat,
National University of Uzbekistan,
Associate Professor of the Department of Sociology
Doctor of Philosophy in Sociology, PhD
e-mail: sabo_77@mail.ru

THE PROCESSES OF GENERATIONAL EXCHANGE IN SOCIETY AS A SOCIAL HOST

ABSTRACT

Society requires to be viewed as a historical process in a changing environment, based on the concepts of restoration and change of social relations, continuity and division, tradition and innovation. The generational step helps determine the balance between the state of society in the past and its movement into the future. This paper studies the problems of methodology and theory of intergeneration attitudes. As the initial methodological basis of this problem Plato's idea about the patrimonial person is designated as well as the views of Russian philosophers about patrimonial integrity as the linker between the person and the society. M. Heidegger's and E. Husserl's ideas of intersubjective experience which is treated as the attitude between old and new generations, between the adult and the child or as generative attitude is analyzed.

Key words: psychology of intergenerational relations, intersubjective experience, generative attitude, intergeneration relationships patrimonial integrity.

KIRISH

Jamiyat o'zgarib borayotgan sharoitda o'z-o'zidan ijtimoiy munosabatlarni tiklanish va o'zgartirish, vorisiylik va uzilish, an'anaviylik va novatorlik tushunchalari asosidagi tarixiy jarayon sifatida ko'rib chiqishni talab etadi. Bu ma'noda avlod uzoq muddatli, muayyan vaqt davom etadigan sotsial o'zgarishlar ko'lami va yo'nalishini o'lchashning tarixiy vositasi vazifasini o'taydi. "Yangi "biologik mavjudodlar"ning ketma-ket paydo bo'lishi yig'ilayotgan madaniy boylikdagi ayrim yo'qotishlarga muqarrar olib keladi, ammo boshqa jihatdan qaraganda, faqat shugina zarurat bo'lganda erishilganning "yangi seleksiya"sini paydo qiladi. Bu biz to'plaganlarimizni qayta baholashga rag'batlantiradi va keraksiz bo'lib qolgan narsalarni unutishni o'rgatadi hamda erishilmagan narsalarga intilishga da'vat etadi" [1, – B.7]. Avlod "qadami" jamiyatning o'tmishdagi holati va uning kelajak sari harakati o'rtasidagi mutanosiblikni aniqlashga yordam beradi.

METODOLOGIYA

Mumtoz jahon sotsiologlari V.Diltey va M.Veber avlodlar tarixi va undagi munosabatlarni tahlil qilar ekanlar, insonlar hayotida "moddiy" va "ma'naviy" kategoriyalar alohida ahamiyat kasb etishini isbotlaydilar. Keyinchalik, E.Dyurkgeym, K.Mangeym va X.Ortega-Gassetlar oila-nikoh va avlod munosabatlarida "sotsial" kategoriyasining o'ta muhim ahamiyat kasb etishini yozadilar [2, – C.572-671]. Xususan, K.Mangeym "avlodlar ittifoqi" atamasini qo'llaydi. Ortega o'z asarlarida sotsiumdagi mavjud qadriyatlar va ularning avlodlar tarixida tutgan o'rnini tahlil etadi. U avlodlardagi biologik va sotsial o'zgarishlarning inson tanasida 15 yil "qadam" asosidagi miqdoriy o'zgarishlar bilan baholaydi, ya'ni 15-30 yosh - yoshlik, 30-45 yosh – tashabbuslar davri, 45-60 yosh – "hokimiyatga bog'lanib qolish" davri, degan izohni ilgari suradi [3, – C.235].

Davriy nuqtai nazardan olib qaraladigan bo'linsa, avlodlar tarixini G'arbning individuallik

va Sharqning jamoaviylik pozitsiyasidan turib tahlil etish XX-asr sotsiologlari X.Bekker, X.Shuman, J.Skot, D.Kertser va T.Shaninlarning asarlarida o'z ifodasini topadi. Jumladan, D.Kertser migratsiya jarayonlarining avj olishi natijasida "avlodlar ajralishuvi" atamasini ishlatadi, X.Bekker ilmiy texnikaviy taraqqiyotdan kelib chiqib "avlodlar o'rtasidagi maqom (status) va kasblarning o'zgarishini e'tirof etadi. T.Shanin sho'rolar davri avlodlarini "urush va turg'unlik yillari avlodlari"ga ajratib tahlil etadi [4, 5].

Qaysidir bir avlod ma'lum bir davrda yashab, o'zining baxtli o'tmishi bilan faxrlansa, yana qaysidir bir boshqalari, o'z o'tmishlaridagi achchiq qismatni esga olishni ham istamaydilar. Lekin, unutmazlik kerak, baxtli davrni ham, o'sha achchiq qismatlar davrining "ijodkor"lari ham shu davrga mansub avlodlar bo'ladilar. Bizning fikrimizcha, tarixiy davrning baxtli yillari yoki achchiq qismatli bo'lishiga asosan shu davrning yetuk avlodlari sababchi bo'ladilar.

ASOSIY QISM

Avlod ichida va yoki avlodlar o'rtasidagi munosabatlarni sotsiologik tadqiq etish, mavjud jarayonning davomiylik darajasi hamda istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlashga yordam beradi. Avlodlar o'rtasidagi vorisiylik yoki ixtiloflarningvujudga kelishi, birinchi navbatda davriy holat bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha u avlodlarning o'zaro to'qnashuvi chog'ida sodir bo'ladi. Avlod tushunchasi kundalik hayot sathidagi ijtimoiy fikr oson foydalanadigan sotsial tushunchalar qatoriga kiradi. Bugungi kunda bunday qiziqishning keskin o'sishi kuzatilmoqda. U kundalik tafakkurda jiddiy tahlil etiladi, undagi "yangi avlod" tushunchasiga murojaatni sifat jihatdan allaqanday "o'zgacha" generatsiyalarning kelishini his etish yoki kutish va paydo bo'layotgan avlodlarda allaqanday innovatsionlikni izlash sifatida talqin etish mumkin. Istihola qilgan holda, avlodlar o'rtasida yuzaga keladigan to'qnashuvlarni inkor etsak, biz jamiyatda sodir bo'ladigan dolzarb sotsial muammolarning biridan ko'z yumgan bo'lamiz. Shu sababli bugungi jamiyatshunos olimlar, xususan sotsiologlarning asosiy vazifalariga avlodlar to'qnashuvini ziddiyatga emas, balki vorisiylikka aylantirishlari taraqqiyotning muhim shartlaridan biri bo'lib qolishini ta'kidlagan bo'lar edik.

2016-yilning 16-iyun kuni Kun.uz saytida jurnalist Sherali Mamadetsoyevning "Yo'qotilgan avlod yoxud 11 yillik ta'lim tizimi atrofida kechgan o'ylar" maqolasi e'lon qilindi va u bir qancha baxs-munozaralarga sabab bo'ldi [6]. Avlodlar mavzusi hamma davrlarda ham dolzarb bo'lganligi bois, ushbu maqola O'zbekiston jamiyatida kechayotgan islohotlar davrida jiddiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi. Muallifning "Ammo achchiq haqiqat shundaki, men ham ko'pchilik kabi shu vaqtgacha haqiqat ko'ziga tik qaray olmadik. Natijada ko'p narsa yo'qotdik, ha, juda ko'p narsa – butun bir avlodni yo'qotdik. Aniqroq aytish ham mumkin, odob-axloq yemirildi, yoshlar o'rtasida bir necha salbiy ko'rsatkichlar, jumladan, jinoyatchilik ham ortdi, voyaga yetmagan g'o'r yoshlar ilk marta o'qishga kirishdagi va baholashdagi tamagirlikni hamda bandlikni ta'minlashdagi ko'zbo'yamachilikning bevosita guvohiga aylanishdi, bu ularning murg'ak ongida qanchalik asorat qoldirganini o'ylashning o'zi dahshat" [7], degan fikrlari bilan 10 minglab o'quvchilar tanishib chiqqanligini e'tiborga olib, avlodlar almashuvi muammosini sotsiologik jihatdan talqinini berib o'tmoqchimiz.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida keksalar soni ortib borayotganiga qaramay, "ko'hna qit'a" hamon "yoshlar qit'asi" sifatida qayd etiladi. So'nggi vaqtlarda ta'lim olishdan bebahra, ish topa olmayotgan yoshlar haqida ko'p gapirilmoqda. Germaniya kansleri Angela Merkel 2013-yilda The Guardian nashriga bergan intervyusida yoshlar o'rtasidagi ishsizlikni "Yevropaning eng dolzarb muammosi" sifatida ta'riflagandi. U Yevropa mamlakatlarining hukumatlari "Yo'qotilgan avlod" paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida Germaniya tajribasidan foydalanishi lozimligini ta'kidlagandi. Germaniya tajribasi shundan iboratki, bu mamlakatda talabalar bir vaqtining o'zida ta'lim oladi va ish bilan mashg'ul bo'ladi. "Yo'qotilgan avlod" (fransuzcha *Génération perdue*, inglizcha *Lost Generation*) – Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'ida paydo bo'lgan ibora bo'lib, bir qator yozuvchilarning ijodida o'z aksini topgan. "Yo'qotilgan avlod" deganda 18 yoshida urushga ketib, odamlarni o'ldirishga jalb qilinganlar tushunilgan. Urushdan keyin ular odatiy hayotga moslashishlari qiyin kechgan. Ibora muallifi Gertrude Stayn ekani aytiladi. Ushbu atamani ilk bor Ernest Xeminguey o'zining "Fiyesta"[8], deb nomlangan romanida

G.Staynning “Sizlar barchangiz yo‘qotilgan avlodlarsiz” degan mashhur iborasini epigraf sifatida keltiradi. 1930-1931-yillarda Erix Mariya Remark “Qaytish” (“Der Weg zurück”) deb nomlangan roman yozadi. Unda Birinchi jahon urushidan qaytgan askarning hayoti qalamga olingan. “Uch o‘rtoq” romanida esa yo‘qotilgan avlod taqdiri haqida hikoya qiladi. Tahlilchilarning fikricha, Birinchi jahon urushi tugaganiga salkam bir asr bo‘ldi. Ammo bugungi yoshlarni ham o‘sha davr askarlarining hayotiga qiyoslayotganlar bor. 21 asrning “yo‘qotilgan avlodi” paydo bo‘lishiga ishsizlik sabab bo‘layotgani tan olinadi [9].

Sotsiologiya sohasida “avlod” mavzusiga bo‘lgan e‘tiborning ortishiga turtki bergan jarayonlarga ikkita sababni asos qilib ko‘rsatish mumkin: a) tarixiy jarayon, bunda insonning tarixiy-madaniy xotirasi qobig‘ida shakllangan o‘zlikni anglash (identichnost) ga bo‘lgan intilishning ortishi va b) sotsial jarayon – globallashtirilgan dunyo va undagi axborotlar oqimining mavjud voqeliklarga ko‘rsatayotgan ta‘sir kuchidan himoyalaniş (mafkuraviy immunitet). Rossiyalik tadqiqotchi B.Dubin “avlod” tushunchasi to‘g‘risida quyidagi fikrni bildiradi: “Umumiy dastlabki nigoh bilan qarashda avlodni sotsial aloqaning shakli va harakatdagi individlar ramziy birdamligining fokusi sifatida tasavvur qilish mumkin: bunda sen (men) boshqalar, ya‘ni xuddi o‘zing singarilar bilan gorizontall o‘q bo‘yicha hayolan birdek ko‘rinishning meyoriy chegarasini tashkil etayotganini his qilamiz” [10, – C.64].

Bunda sotsiologik qoidalar asosida “avlod” kategoriyasi va uning chegarasi to‘g‘risidagi tasavvurlarning ko‘rsatkich birligini ajratib ko‘rsatish lozim bo‘ladi. Jumladan, bir avlod o‘z o‘rnini ikkinchisiga bo‘shatib berayotganda, u bilan birgalikda faoliyat yuritgan sotsiomadaniy meyorlar, aniqrog‘i bir necha yondosh avlodlarni davriy birlashtirib turgan umumiy ramzlar hamda ramziy ifodalar ham eskirishini qayd etish lozim bo‘ladi. Bu xususda nemis sotsiologi K.Mangeym shunday yozadi: “Har bir avlodning o‘z vaqt o‘lchovi va tarixiy-madaniy makoni mavjud. Jamiyatda avlodlar almashinuvi – inson hayotining biologik sur‘atiga asoslangan universal jarayon sanaladi. Uning natijasida madaniy makonda yangi ishtirokchilar paydo bo‘ladi, bu makonning eski aktor (ishtirokchi)lari esa sekin-asta yo‘qolib boradi, istalgan avlod a‘zolari tarixiy jarayonning xronologik cheklangan bo‘lagida harakat qila oladi va shuning uchun to‘plangan madaniy merosni keyingilarga tinimsiz uzatib borish lozim” [11, – C.38].

Savol tug‘ilishi mumkin, “avlod” ning “yondosh avlod” dan farqi nimada? Avlod – bu davriy ko‘rsatkich bo‘lib, u ma‘lum bir davrning qanchalik uzoq yoki qisqa davom etishiga qaramay, unda sotsial faoliyat yuritgan kishilar guruhiga nisbatan ishlatiladi. Yondosh avlod esa o‘zida demografik ko‘rsatkichlarni ifodalaydi. Masalan biz, “bugungi O‘zbekistonning mustaqillik davri bolalari” degan tizimga 10 yoshliklar bilan birgalikda 25 va 30 yoshdagi kishilar guruhini ham kiritishimiz mumkin. K.Manxeym tomonidan kiritilgan avlod sotsiologik tahlilining umumiy prinsipi avlodlarga umumiy tarixiy lokallashuvi va shunga muvofiq bunday vaziyatlarda yashashning umumiy tarixiy tajribasiga ega bo‘lgan avtonom sotsial birliklar sifatida yondoshishdan iborat. K.Manxeym, shuningdek, mazkur guruhning tarkibiga kiruvchi alohida guruhlarining masalan, avlodning uzagi, autsayderlar, avlod ichidagi madaniy va siyosiy ittifoqlar, alohida guruhlarining avlod bilan identifikatsiyalashgani darajasi tajribasi sifatidagi avlodning ichki differentsiatsiyalashganini ham farqlagan.

Olim fikriga ko‘ra, sotsial o‘zgarishlarga avlodlararo yondoshuvning murakkabligi shundaki, tinimsiz almashinib kelayotgan avlodlarning formal chegaralarini, shuningdek, avlodlararo farqlanishlarning boshqa turdagi sotsial differentsiatsiyalar bilan munosabati ko‘lamini belgilash ancha qiyin [12, – C.287-289]. Uning uchun eng muhimi – avlodiy birlikning shakllanishi mexanizmini ochish hamda avlodiy birdamlik (biz buni “jamoaviy taqdir” deb ataymiz) g‘oyasini tadqiq etish bo‘lgan. Avlodlarga oid zamonaviy konsepsiyaning shakllanishi sotsiologik konsepsiyalarda ham o‘z ifodasini topgan ikki sotsiologik tendensiya bilan bog‘liq. Bir tomondan, inson hayotining uzayishi va aholining “qarishi” inson hayotini alohida yosh bosqichlari sifatida emas (yoshlar sotsiologiyasi, keksalar sotsiologiyasi shu bilan bog‘liq), bir yosh bosqichidan boshqasiga o‘tishning yagona jarayoni sifatida tushunish hamda bir avlod hayotiy tajribasi dinamikasini o‘n yilliklar davomida kuzatishga olib keldi. Shu bilan birga avlod nafaqat yoshlik chog‘idagi tarixiy lokallashuvi bilan, balki hayot sikllarining keyingi bosqichlarida qanday

rivojlanganligi bilan ham belgilanadi.

Tabiiyki, avlodning keksalikdagi hayotiy faoliyati uning o'smirlik chog'idagi sotsial amaliyotidan farq qiladi. Bu holat amerikalik olim G.Elder qo'llagan va keng e'tirof etilgan hayot yo'li (life course) konsepsiyasining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi [13, – C.359]. Bunday yondoshuvda asosiy diqqat-e'tibor avlodni butun hayot yo'lini bosib o'tish mobaynida va bir bosqichdan keyingisiga o'tish tarzida o'zgarib boradigan yagona hayotiy tajribasi sifatida o'rganishga qaratiladi. Bunda o'smirlikdan (birlik sifatidagi avlodning shakllanishida eng muhim "formativ" davr sifatida, chunki keyingi bosqichlar birlamchi tipik xususiyatlarni faqat kuchaytiradi yoki bo'shashtiradi) keksalikkacha bo'lgan hayot yo'li dinamikasi avlodlar konsepsiyasini shakllantirishda markaziy tushunchaga aylanadi Sotsial birlik sifatidagi avlod konsepsiyasiga oid bahslarning boshqa yo'nalishi zamonaviy jamiyatdagi individuallashtirish jarayonlarining tezlashishi bilan bog'liq. Mazkur yondoshuv bo'yicha bir avlod vakillarining sotsial tanlash imkoniyati va hayoti yo'lining variativligi kengaygan sari avlodning ichki differentsiatsiyalashuvi jarayoni ahamiyatliroq bo'lib boradi.

O'zbekiston sharoitidan kelib chiqadigan bo'lsak, mamlakatning mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyingi vaqtdagi avlodlar orasidagi farqni beradigan darajani 10 yil muddatli "qadam" bilan o'lchaydigan bo'lsak, bugun biz uchinchi avlodning faoliyatini kuzatishimiz mumkin. Birinchi avlodni "o'tish davri" bilan qiyoslasak, ikkinchi avlodni butun dunyoda kechayotgan globalashuv va axborotlar asri ta'siridagi "avlod" sifatida tasavvur qilishimiz va so'nggi uchinchi avlodni esa "yangi islohotlar davri avlodlari" sifatida olishimiz mumkin.

Zamonaviy sotsiologiyadagi "hayot yo'li" konsepsiyasi jamiyatshunoslikka oid tadqiqotlarda hozircha ilmiy izlanish predmeti darajasiga ko'tarilmagan bo'lsada, tahmin qilib aytish mumkinki, unda avlodlarning ijtimoiy "keksayishi" jarayonlarini, yoki o'rta avlodning qaysidir mavhum sotsial talablarini hisobga olinmaganligi natijasida kechayotgan "charchoqlilik" masalalarini o'rganish har bir shart-sharoitlarda milliy xususiyatlar hisobiga sodir bo'lishi mumkin. Garchi alohida hayot bosqichlari (bolalik, o'smirlik, keksalik) muammolari mahalliy sotsiologiyada nisbatan izchil o'rganib borilayotgan bo'lsada [14], ushbu konsepsiya alohida ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etsada, bizning mazkur maqolamizda tadqiqot vazifasi sifatida ilgari surilmaydi.

So'nggi o'n yil davomidagi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan jarayonlar avlodiy kogortalarning ancha tezlik bilan yangilanishiga va o'zlarini "bolalar" avlodi deb ataydiganlarning jiddiy ichki differentsiatsiyalashuviga turtki berdi. Tushunarliki, alohida sifatiy-farqli yosh kogortalarning aniq demografik chegaralarini belgilash ancha qiyin. Shunday bo'lsa-da, qiyosiy tahlil qilish maqsadida biz asosiy mezon – tuzilmaviy (formativ) davrlarga taqsimlab, uni tarixiy, o'ziga xos tajriba asosida shartli ravishda uchta yosh guruhlariga ajratdik: 1) XX-asrning 60-yillarda tug'ilganlarga nisbat berilgan yosh kogortasi (sotsiologik adabiyotlarda "shestidesyatniki" deb nomlanib, koinotni zabt etilishidan ta'sirlanganlar avlodi ham deyiladi); 2) 70-yillar davri yosh kogortasi (sotsiologik manbalarda "turg'unlik davri" avlodlari deb nomlanadi); 3) 80-yillarning birinchi yarmi kogortasi (ilmiy manbalarda "sukut saqlash" davri avlodlari, deb nomlanadi).

Avlodlar almashinuvining ushbu formativ "sukunatli" davri 25 yillar davom etib, XX-asrning o'ziga xos ijtimoiy fenomeni sifatida tarixda qoldi. Bu davr avlodlarining o'z imkoniyatlarini namoyish etish borasidagi faoliyatini ta'kidlaydigan bo'lsak, ular sukut saqlagani holda, biz uchun hozirgi kundagi "ijtimoiy maydon"dan ko'ra sifatli harakat qildilar. Ko'plab tadqiqotchilar bunga sabab sifatida koinotning zabt etilishi va uning uzoq 20 yillik inersiyasini ko'rsatadilar. Faqat O'zbekiston sharoitidan kelib chiqib misollar keltiradigan bo'lsak, ayna shu davrda teatr va kinodagi eng zo'r ssenariylar, madaniyat va san'atdagi bebaho asarlar, estrada va boshqa qo'shiqchilik turlarida kuylangan o'lmas ashulalar, nasr va nazmda yozilgan roman va she'rlar to'plamlari, arxitektura, haykaltaroshlik va rassomchilikdagi noyob durdonalarni yaratgan avlodlarni ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarining ilk 15-20 yilliklaridagi imkoniyatlarini yaratishda, bizningcha, aynan shu davr avlodlarining inersiyasi ustuvorlik qildi. Bunda tabiiyki 80-yillarning ikkinchi yarmida shakllangan qayta qurish avlodlarining ham roli beqiyosdir. Qayta qurish davri yoshlari

o'zida 60-yillarda tug'ilganlarni o'zida qamrab oladi. Ular "qayta qurish" davri yoshlari deb atalib, 1986-1992-yillari 18-30 yoshdagi kishilardan tashkil topganlar edi. Bu davrning shakllanishidagi formativlik juda ulkan geografik hududdagi to'liq axborot blokadasining olib tashlanishi sharoitiga to'g'ri keladi. Bu davr yoshlari o'z bolaligini o'zlaridan avvalgi "otalar" avlodi kabi sobiq ittifoq tuzumi sharoitida hayot kechirgan bo'lsalarda, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalaridagi kechgan davr qonunlaridagi sotsialistik loyihalar doirasida shakllangan "avlodlar vorisiyligi" batamom tanazzulga uchragan shart-sharoitlarda kechiradilar. Bu yosh kogortasining o'zagini yosh ziyolilar tashkil etib, ular o'z ota-onalari tasavvuridagi singari sotsializm davridagi "to'kinlik" nuqtai nazarni inkor etadilar. Bu davr avlodlari keyinchalik "qiyoslovchi avlod" sifatida tarix sahifalariga kiradilar. Boisi ikkita tuzum va ikkita shart-sharoitni ko'rish tarix sarhadlarida kam avlodlarga nasib etadi.

Bir tomondan bu holat ushbu avlodlarga keng tafakkur qilish imkoniyatini bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan o'zlikni namoyon etishda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. O'tgan asrning 80-yillaridagi sotsiologik tadqiqotlarda ushbu yosh kogortlari o'zlarining sotsialistik qadriyatlarga, undagi moddiy va sotsial imtiyozlarga nisbatan norozilik ifodalarini bildirganlar [15]. Ushbu kogortaning jamiyatga ijtimoiylashuvi (80-yillarning o'rtalaridan boshlab) qayta qurish jarayonlari davrida murakkabliklarni keltirib chiqaradi, boisi, ular bolalikdagi ilk ijtimoiylashuvning tez yakuniga yetib, o'smirlik ideallari shakllana boshlagan bir davrda o'ziga xos mutlaqo yangi, faol harakatlarda tanqidga uchragan mafkuraviy davrga to'g'ri keladi. Shu paytda bildirilgan fikr-mulohazalarda, yosh avlodning jamiyat hayotidagi qayta qurishni harakatga keltiruvchi kuchga aylanishi haqidagi qarashlar amalda o'z tasdig'ini topmadi.

Keyinchalik, 90-yillarning boshlarida (1991-yildagi yosh davrlari kogortasi shu yili 25-29 yoshdagilarga nisbat qilib olinadi) faol harakatda bo'lgan kogorta universitet ta'limini tamomlaganlar dunyoqarashi va tafakkuriga qarab belgilanadi. Bu avlod asosan kasbiy mehnat bilan shug'ullanib, avvalgi inersiya hisobiga, asosan davlat muassasalarida ishlardilar (tahminan 85%). Faoliyatdagi generatsiyaning deyarli uchdan bir qismini oliy ma'lumotli mutaxassislar tashkil etib, qolgan ikki qismini shu paytlarda hali bankrotlikka to'liq uchramagan zavod-fabrikalarning ishchilari tashkil etgan (kasb va hunar-texnika bilim yurti yoshlari asosiy kogorta hisoblangan). Ammo, jamiyatda bo'shliq paydo bo'la boshlaydi. Ish o'rinlari kamayib, xususiy sektor palapartishlik bilan rivojlanishga o'tadi. Avlodlar vorisiyligi tizimi izdan chiqib boshlaydi. Jamiyatda "otalar va bolalar" dunyoqarashida qaysidir ma'nodagi qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi [16].

Hozirgi vaqtda bu kogorta o'z hayot yo'lining eng faol bosqichini bosib o'ttib bo'ldi. Bugungi kunda ushbu avlodning ijtimoiy-siyosiy sohalaridagi aktor sifatleri "bolalikni eslash", ba'zida "qo'msash" xususiyatlari bilan o'rin tutadi. Shu boisdan ham, ushbu generatsiya ijtimoiy sohani jiddiy o'zgartirishga har doim qodir bo'lgan kuchli innovatsion potentsialga ega emas. Xususan, o'zga yosh davrlarining kogort guruhlari bilan qiyos qilganda, ularda mulkchilikning davlat shakliga (yerga mulkchilik shakli singari) oriyentatsiyasi yuqoriligicha qolmoqda. O'zlarining siyosiy elektoral xatti-harakatlari shakllari bo'yicha ham faollik darajasi kam ko'rsatkichlarni ifodalaydi. Umuman olganda, qayta qurish avlodlari nomi bilan sotsiologik manbalarda ifodalangan kogorta yoshdagilar guruhi o'z xati-harakatlari namunalari bo'yicha muayyan innovatsion potentsialni o'zida mujassam etishdan ko'ra, ko'proq o'zlaridan avvalgi o'tgan avlodlarning "hayotiy lavha (pozitsiya)"laridagi loyihalarni takrorlashni xush ko'radi.

Ikkilamchi yoshlar kogortasini islohotlar boshlangan davr yoshlari sifatida olib qarab, ularni yosh avlod doirasida alohida guruhga ajratish mumkin. Xronologik jihatdan ushbu kogorta XX-asrning 70-yillarda tug'lganlarga taalluqlidir. Ikkilanuvchi avlodning ilk ijtimoiylashuvi davri 10-15 yoshgacha kechib, sobiq ittifoqning qayta qurish jarayonlariga (1985-90y.y.) to'g'ri kelib, ilmiy manbalarda "otalar tarixiy merosi"ni keskin va ayovsiz tanqid ostiga olish, deb ham nomlanadi. Mazkur kogorta uchun asosiy ijtimoiylashuv omili sifatida ommaviy axborot vositalari (OAV) faoliyati va sohasida vaziyatning tubdan o'zgarishi, axborot senzurasini to'xtatilishi, mavjud tuzumning o'tmishi va bugungi kundagi tizimiga nisbatan tanqidiy munosabatlarning keskin kuchayib borishi sabab bo'ladi. Yangi avlod uchun ijtimoiy hayot sahnasida noformal muloqot doirasi shakllanib, oilaviy o'zaro suhbatlar, tengdoshlari bilan bo'ladigan har qanday muloqotlar

tanqidiy munozaralar bilan yakun topardi.

Ikkilamchi kogort eng ta'sirga beriluvchan, hissiyotga moyil avlod sifatida tarixga kirib, u tezkor (intensiv) va maqsadga yo'naltirilgan turli mafkuraviy ta'sirlar o'tkazishning bosh obyektiga aylanib qoladi. Boshqa tomondan qaralsa, ushbu kogortaning shakllanish jihatlari kechadigan ta'lim institutining mavjud mafkuraviy tizimga bo'ysundirilgan inersiyasi ahamiyatini yo'qotib bormoqda edi. Shu bilan birga, 80-yillarning oxirgi o'n yilligiga kelib maktablardagi pioner va komsomol tashkilotlariga bo'lgan ishonch belgilariga nisbatan ikkilanish bilan qarash boshlandi [17].

Ota-onalar vorisiyligi bo'lgan an'anaviy qadriyatlar (paternalizm, umumjamoaviy manfaatlar yo'lida birlashish, o'zlikdan kechib jamoa manfaatlariga xizmat qilish va shu k.)ga nisbatan nigilistik qarashlarning kuchayib borishi, shuningdek, nigilistik munosabat tufayli barcha qadriyatlarga nisbatan keskin munosabatdagi yondashuvlar 90-yillarning o'zgarish xususiyatlarini tashkil etadi. 90- yillar boshidagi ushbu kogorta 15-20 yoshdagi avlodlarni o'ziga qamrab olgandi. Otalar qadriyatlariga nisbatan keskin norozilik, o'tmishni noto'g'ri kechganligi, barcha narsaning asosi iqtisodiy me'zonlar ekanligi to'g'risidagi qarashlar avj olar ekan, yaxshi yashashning bosh omili sifatida tadbirkorlik bilan shug'ullanib, tezlikda boyib ketish asosiy qadriyatga aylandi. Yangi iqtisodiy qadriyatlarga bo'lgan moyillik shu davr kogortasini uzoq yillik ta'lim olish rejalaridan voz kechishga olib keldi. 1990-1995-yillarda oliy ta'lim olishga bo'lgan intilish mavqesi keskin tushib ketdi. Universitetlarga kirish uchun konkurslar bo'lmay qoldi. Butun bir tizimda ulkan kaos, ya'ni bo'shliq hukm surardi [18].

Mazkur davr yoshlari kogortasi haqidagi mavjud ma'lumotlarni umumlashtirsak, uni nigilistik voqelik deb atash mumkin. Chunki bu davr ota-onalar vorisiyligini ta'minlovchi postmaterialistik qadriyatlarni va uning oliy ta'lim olishga qaratilgan strategik mavqeni butunlay inkor etardi. Ushbu kogortaning bu kamchiligi keyinchalik yillar kesimida avlodlar almashinuvi jarayonlariga ham juda katta salbiy ta'sir o'tkazdi. Yoshlar kogortalari orasida alohida o'rin tutadigan yana bir guruh – sotsiologik manbalarda “X” (iks) avlod deb nom olgan guruhga e'tiborni qaratamiz. Bu kogorta 70-yillar oxiri, 80-yillarning boshlarida tug'ilganlarga nisbatan ishlatiladi.

Ushbu avlodning formativ davri 90-yillardagi iqtisodiy islohotlar davriga to'g'ri kelib, ushbu islohotlar natijasida davlat va ijtimoiy tizim sifat jihatdan o'zgacha shaklga o'tib bo'lgandi. Mazkur avlodning vakillari shu vaqtda 20 yoshdan oshmagan bo'lib, ularning ko'pchiligi qaysidir bir ta'lim tizimi doirasi harakat qilardi. “X” avlod guruhi fanlar tizimida mutaxassislar tomonidan ayni shu paytdan boshlab nomlana boshlandi. Unga ko'ra, shu davrdan boshlab har 15-20 yillik faoliyat doirasida yana “Y”, “Z”, “G” avlodlarni farqlash ilgari surildi. Guruhlarni tafsiflashda aniqlangan tendensiyalar hamda oldingi avlodlardan keyingisining imkoniyatlaridagi farqlarning shakllanishi bilan bog'liq umumiy shart-sharoitlar konturi belgilandi.

Har bir avlodning umumiy, hamda tahminiy qiyofasini tasvirlash uchun taniqli fransuz tadqiqotchisi Attias-Donfu (Attias-Donfut)ning metodik jihatdan ilgari surilgan yondashuvlarini qo'llash asos qilib olinadi. A.Donfu shunday yozadi: “Yashab qolish uchun muhtoriyatga intilish va o'zidan avvalgi avloddan mustaqil bo'lishga harakat qilayotgan har qanday yangi avlod shakllanishiga tabiiyki qarshilik qilish va ziddiyatga borish xos xususiyat hisoblanadi. Shu tariqa avlodlar to'qnashuvining dastlabki ijtimoiy konturlari namoyon bo'ladi. O'zaro munosabat va qarshi munosabatlar avvalgi avlod tomonidan belgilansada, baribir ushbu munosabatlar oxir-oqibatda o'z o'rniga kelayotgan yangi avlodning o'z shaxsiy qiyofasini aniqlash va shakllantirish uchun talab etilgan butunlay yangi, o'zgacha fikrlaydigan kishilar guruhini paydo qiladi” [19].

Tabiiy savol tug'ilishi mumkin. Har bir avlodning o'zidan avvalgisidan ajratib turadigan eng asosiy farq chegarasi qayerda chiziladi? Mazkur savolga yosh kogortasining ijtimoiylashuvi kechgan tarixiy va davriy shart-sharoitlar inobatga olinadi. Masalan, o'tgan asrning 90-yillaridagi butkul vayron bo'lgan sovetlar ta'limi tizimi bir avlodning ikkinchisi bilan tutashtirishi kerak bo'lgan vorisiylikka butunlay barham beradi. Ta'lim tizimi ilgarigi aniq yo'nalishda ta'sir o'tkazishning umumdavlat tizimidan, endilikda o'sib kelayotgan avlodlarda ijtimoiy tengsizlikni shakllantirish tizimiga aylanadi. Natijada, davlat o'z shaxsiy amaliyotida ilk bor ikki ijtimoiy avlodning potensial imkoniyatlari va zaif tomonlarini qiyoslay olish imkoniyatiga ega bo'lmagan birinchi generatsiyani yuzaga keltirdi.

Shuningdek, tarbiyaviy masalalarda ota-onalar tajribasi (avvalgi avlodlarning oilaviy tajribasi ham) yangi tarixiy sharoitlarda o'z qiymatini yo'qotib, vorisiylikni takrorlash uchun yaroqsiz holga kela boshlaydi. Sotsiologiyada ushbu mavzu "Otarlar va bolalar muammosi" sifatida fanga kirib keladi. Bu esa o'z navbatida avlodlarga nisbatan "o'tmishga" suyanish yoki uni "qo'msash" tendensiyasini mavjud generatsiyaga amalda qo'llab bo'lmasligini ko'rsatdi [20].

XULOSA

Ushbu maqolada biz tomonimizdan yosh darajasi kogortalarining qiyosiy tahlili uchun uchta sifatiy jihatdan bir-biridan farq qiladigan bir tarixiy davrning avlodlaridagi ijtimoiy imkoniyatlari tahlilini berdik. Birinchi avlodga XX-asrning 60- yillarida tug'ilgan, ijtimoiy faollik darajasi tufayli "Qayta qurish avlodi" deb nomlangan yosh kogortasi bilan izohlanadi. Keyinchalik, ushbu avlodning har 10 yil ichida yetuklik yoshiga kirib borgan sari (bugungi kunda ushbu avlod vakillari 55-65 yoshlardagi kishilarni tashkil etadi), ularning hayot pozitsiyalarida bosib o'tgan yo'llari ijtimoiy qonuniyatlari haq 10 yillikning ichida sodir bo'lgan ijtimoiy-tarixiy voqealarga qarab o'zgarib bordi.

Fikrimizcha, shaxs sifatidagi ijtimoiylashuvi asosan sotsialistik tuzum loyihalari ta'sirida bo'lib o'tgan, ammo keskin tarixiy o'zgarishlar natijasida ikkinchi "kechki ijtimoiylashuv" bosqichiga o'tishga majbur bo'lgan bu avlod vakillari tanqidiy ruhiyat bilan bog'liq sindromni o'z boshidan o'tkazgan yagona formativ davr avlodi bo'lib qolishi mumkin. Keyinchalik ham mazkur kogorta bazasida "yangi avlod" na'munasi paydo bo'lmadi. Chunki, ikkinchi va uchinchi avlodlar ham shu tarixiy davrni qisman boshidan kechirgan bo'lsa-da, ular zaiflashib borayotgan an'anaviy sotsialistik loyihaga deyarli tegishli emasdilar, degan ilmiy gipotezani ilgari surishimiz mumkin. Avlodlar generatsiyasi bilan bog'liq ilmiy loyihalarni ilgari surishdan asosiy maqsad, ulardagi umumiy birlashtiruvchi ijtimoiy xususiyatni ifodalovchi "jamoaviy biografik shartlar yo'nalishi"ni aniqlab olish talab etiladi.

Umuman olganda, zamonaviy jamiyatda avlodlar birlashishi va differentsiatsiyalashuvi muammolarini muhokama qilish natijasida shunday xulosa qilish mumkin: a) bugungi davrimizning katta yoshdagi avlodlari yagona an'anaviy sotsialistik loyiha doirasida shakllangan bo'lsalar-da, yangi davr qonuniyatlariga mos tarzda hayot kechirishni davom ettirmoqda; b) 2000-yillardan boshlab avlodlar vorisiylikni ta'minlash uchun olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida avlodlar o'rtasidagi ziddiyat, to'qnashuv yoki qarama-qarshiliklar birining ikkinchisini to'liq inkor etish uchun imkoniyat qoldirmadi; v) o'zlarining tarixiy va davriy tuzumlardagi ijtimoiy qonuniyatlardagi farq va tafovutlarga qaramay, mavjud milliy va diniy qadriyatlar an'anaviy mazmun kasb etib, mental tafakkur doirasida birlashish imkonini berdi; g) "Ota va bolalar muammosi" har bir davrga xos bo'lib, yosh kogortalari doirasidagi ilk ijtimoiylashuvlar, hamda yoki formativ tarixiy davrlarning o'zgarishlari ta'sirida qaysidir ma'nodagi ijtimoiy to'qnashuv, ziddiyat va inqirozli vaziyatlarga sabab bo'laveradi; d) o'tmishni qo'msash, "ortga sog'inib (nostalgiya) qarash" kayfiyati ilmiy nuqtai nazardan olganda ilk ijtimoiylashuv bilan bog'liqligini inobatga olish kerak bo'ladi. Shaxs jamiyatga ijtimoiylashib borar ekan, uning uchun ilk bolalikdagi ijtimoiylashuv doimiy yodda qoluvchi holatligini unutmaligimiz kerak bo'ladi; y) har bir avlodning ijtimoiy guruh sifatidagi dastlabki ijtimoiylashuv davri tajribasini sotsiologik o'rganish asosida sifat jihatidan yangi avlod uchun vorisiylikka xizmat qiladigan na'munaviy ijtimoiy loyihalar va xatti-harakatlar pattern (hayotimizda tez-tez duch kelinadigan ijtimoiy muammolarning loyihalashtirilishi) ishlab chiqish va shakllantirilishi talab etiladi; j) yangi avlodlarning o'zini namoyon etishi uchun o'z salohiyatidan tashqari, uni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan ijtimoiy imkoniyatlarni yaratib berish lozim bo'ladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Каланова С. Жамиятда авлодлар алмашинуви жараёнларининг социологик таҳлили. – Тошкент: "Fan va texnologiya", 2018. – Б.7.
2. Манхейм К. Консервативная мысль: // В кн: Диагноз нашего времени. – М.: 1994. – С. 572-671.
3. Ортега-и-Гассет Х. Вокруг Галилея: Избр. Труды. – М., 1997. – С.235.

4. Шанин Т. Революция как момент истины. 1905-1907-1917-1922 гг. – М.: 1997. – С.11.
5. Гегель Г. Философия природы / Г.Гегель. – Соч.: М.-Л., 1934. – Т.2. – С. 507.
6. Акс-садо: “Коллежларда ўқиган авлод йўқотилди”, дейиш кўр-кўрона хукм қилишдир // Жамият. 21 июнь. – Тошкент, 2017.
7. Мамадетсоев Ш. Йўқотилган авлод ёхуд 11 йиллик таълим тизими атрофида кечган ўйлар // Kun.uz, 16 июнь. – Тошкент, 2016.
8. Хемингуэй Эрнест. Фиеста: [роман] / Эрнест Хемингуэй; [перевод с английского В.Топер]. – М.: Издательство АСТ, 2022. – 288 с.
9. Тўлаганов Ш. 21 асрнинг “Йўқотилаётган авлоди” // www/http: Жаҳон. 29 Март 2016//2029.
10. Дубин Б. Поколение: смысл и границы понятия. / В кн: Отцы и дети: Поколенческий анализ современной России. – М.: Новое литературное обозрение, 2005. – С. 64;
11. Мангейм К. Идеология и утопия. – М.: ИННОН, 1976. – С. 38.
12. Мангейм К. Идеология и утопия. – М.: ИННОН, 1976. – С. 287-289.
13. Мид М. Культура и преемственность. Исследование конфликта между поколениями / М. Мид // Культура и мир детства. Избр. произв. / Пер. с англ. – М., 1988. – С. 359.
14. Кондратова Г.А. Человеческое измерение истории / Г.А.Кондратова. – Архангельск, 2007. – 310 с.
15. Коровицына Н.В. Среднее поколение в социокультурной динамике Восточной Европы второй половины XX века. – М.:«Логос», 1999.
16. Каланова С. Жамиятда авлодлар алмашинуви жараёнларининг социологик таҳлили.– Т.: “Fan va texnologiya”, 2018. – 248 б.
17. Левада Ю. Координаты человека. К итогам изучения «человека советского» // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. 2001, № 1. – С. 7-30.
18. Каган М.С. О структуре современного антропологического знания / М.С.Каган // Сб.: Очерки социальной антропологии. – СПб: Петрополис,1995. – С. 37.
19. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. М.:«Полит. лит-ра», 1992. – С. 297-302.
20. Суханов А.П. Информация и прогресс / А.П.Суханов. – Новосибирск: Наука, 1988.
- 15.Тоффлер, А. Футурошок / А.Тоффлер. – СПб.: Лань, 1997. – 464 с.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000